



## EKOJURNALISTIKADA FEYK AXBOROTLARNI TARQATISH VA UNING YECHIMLARI

*Akramov Shahriyor*

*Buxoro davlat universiteti*

*Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada jurnalistikaning alohida sohasi ekojurnalistika yo'nalishi bo'yicha yolg'on ma'lumot tarqatish, uni saqlash, axborotlarni tekshirmasdan ommaga e'lon qilish, ekojurnalistika yo'nalishi borasidagi qonunlar, yurtimizda atrof-muhitning tiklanishi uchun olib borilayotgan yechimlar, online ekologik jamiyatda tabiatning tiklanishi, turli xil saytlarda va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ekologiyaning buzilishini va noqonuniy axborotlarning qonuniy yechim topishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolani o'qish davomida siz yolg'on axborot tarqatish orqali turli xil jazolarga tortilishi, ekologiyaning buzilishida ekologik auditning qanchalik muhimligi, Internet tarmoqlarda berilayotgan soxta axborotning ham qonuniy jazosi borligi va yurtimizda juda ko'plab ekologiyaga oid dasturlar amalga oshirilayotganligi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** ekojurnalistika, ekologik audit, OAV, feyk axborot, ekomuhit, ekobuzilish, ijtimoiy tarmoqlar, Orol fojiasi.

**Abstract.** In this scientific article examines the dissemination of false information, its storage, public disclosure of information without verification, laws on eco-journalism, solutions for environmental restoration in our country, restoration of nature in an online ecological society, environmental degradation distributed on various sites and social networks, and legal solutions for illegal information. Also, while reading the article, you will learn about the various penalties for spreading false information, the importance of environmental audits in



environmental degradation, the legal penalties for false information provided on the Internet, and the fact that many environmental programs are being implemented in our country.

**Key words:** Media, false information, eco-journalism, eco- destruction, social Networks, Aras Sea tragedy

**Kirish.** Ma'lumki, yillar o'tgan sari insoniyatning texnologiyalar sohasiga qiziqishi oshib bormoqda. Insonlarning kundalik turmush yangiliklaridan boxabar qilib turuvchi gazeta, jurnal yoki shunga o'xshash bosma nashrlarga bo'lgan ehtiyoj kamayib bormoqda va buning oqibatida ular yangi axborot olish uchun turli xil ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga ko'nikmoqdalar. Insonlar kundalik hayotini ijtimoiy tarmoqlardagi chatlar, videolar, tanishuv saytlari va boshqa online muloqot bilan o'tkazishni odat qildi. Ammo hozirgi kunda Internet tarmoqlarida ekologiyaga oid turli xil muammolar ko'rsatilmoqda va bu muammolarning yechimi haligacha hal etilganini yo'q. Xo'sh, shu o'rinda savol tug'iladi. Internet asrida rivojlanib borayotgan turli xil saytlardan o'zimiz bilgan yoki bilmagan holda qay tarzda foydalanayapmiz? Bu saytlarda berilayotgan ekologik ma'lumotlarni qay holda tushunayapmiz? Bu o'rinda turli ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuvchiga taqdim etilayotgan ijtimoiy mahsulot yuzasidan va tarmoqdagi ekobuzilishlarning yoshlar ongiga berayotgan yomon ta'siri uchun O'zbekistonda ham qator qonunlar va cheklanishlar mavjud. Yolg'on axborotning bizga yomon ta'siri shundaki, jamiyatda yoki boshqa davlatlarda bo'layotgan hodisalarning yolg'on tarqalishi orqali o'quvchining ongiga, tasavvuriga yolg'on xabar yetkazilishidadir.

Internet rivojlanayotgan jamiyatda insonlarning ko'p qismi axborotni gazeta nashrlari orqali emas, balki Internetdan olishga o'rganganlar va bu xabarlarni o'zi bilmagan yoki bilgan holda yolg'on tadqiq etishi va bu



ma'lumotni o'rganishi mumkin. Yaqinda shuning guvohi bo'ldimki, turli xil ijtimoiy tarmoqlarda faol obunachilarga ega bir kishi o'z akkauntida yaqinda shu yurtni suv boshini va buning oqibatida aholiga aziyat yetkazilishini yozib o'tgan. Buning oqibatida bu foydalanuvchining rasmiy sahifasiga ulangan shu yerliklar o'sha voqea sodir bo'ladigan o'z uylarini tashlab ketishgan va shu kuni egasiz uylarda o'g'riliklar sodir etilgan. Mana guvohi bo'ldikki, ekójurnalistikaga oid yolg'on ma'lumot ham kishiga qanchalik ko'p aziyat yetkazadi. Bunday Internet sahifalarida ham yolg'on ma'lumotlar tarqatganligi uchun tegishli qonunlar asosida javobgarlikka tortiladi.

“2023-yil Yevropa Ittifoqining Media Monitoring Report ma'lumotiga ko'ra, ekologik mavzulardagi feyk xabarlarining 37% iqlim o'zgarishini inkor etishga qaratilgan.”

Istiqlol yillarida respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik bazasi eski ko'rinishdan yangi ko'rinishga sezilarli yaxshilangan holda qayta tiklandi. Atrof-muhitni asrashdagi ma'muriy huquqbuzarlikka va buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvdan tejamkor, ekologik va tabiiy usulda asrashdagi boshqaruv tizimiga o'tildi. “1992-yili O'zbekiston tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi” [1]. Bu qonunning asosiy maqsadi insonlarga atrof-muhitga e'tiborda bo'lishni, sport komplekslarini qurishni va fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lgan inshootlar bilan ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga hozirgi kunda atrof muhitning ifloslanishi jadal sur'atda oshib bormoqda. Buni tekshirish va doimo ekologiyani saqlash bo'yicha turli xil qonunlar ham tuzilgan. Qonun bo'yicha tabiatning ifloslanmasligi doimo muhitga ta'sirining ko'paymasligi natijasida O'zbekiston Respublikasining “Ekologik audit to'g'risidagi” qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Qonunning 6-moddasida ekologik auditning asosiy vazifalari



berib o‘tiladi. Bu moddada ekologik auditning tavsifi quyidagicha beriladi. “6-modda. Ekologik auditning asosiy vazifalari Ekologik auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: – ekologik audit sub’yekti xo‘jalik va boshqa faoliyatining ekologik jihatlarini to‘g‘risidagi ishonchli axborotni to‘plash; – ekologik audit sub’yekti xo‘jalik va boshqa faoliyati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash; – ekologik audit sub’yekti faoliyatining atrof-muhit holatiga ta’sirini baholash; – ekologik audit sub’yekti tomonidan amalga oshiriladigan tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlarning samaradorligini baholash; – atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi xavfini kamaytirish; – atrof-muhitni boshqarish tizimining samaradorligini baholash; – ekologik audit xulosasini tuzish, ekologik audit sub’yekti tomonidan amalga oshiriladigan tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek, atrof-muhitni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish” [2].

Demak, asosiy tushuncha bo‘lgan ekologik audit o‘zi nima degani va bu qonunlarning ekologiyaga qanday daxli bor? Ekologik audit – ekologiyaning sub’yekti bo‘lib, amalga oshiriladigan, olib boriladigan ishlarning faoliyatini texnik tarafdin normativ hujjatlar hamda ekologik baholashni anglatadi. Ekologik auditga oid moddalarni ishlab chiqish atrof-muhitning tiklanishi, rivojlanishi, kelgusida olib boriladigan ishlarda ham deboncha vazifasini o‘tashga yordam beradi. Yuqorida aytganimizdek, hozirgi kunda tabiatga bo‘lgan munosabat juda yomon tomonga qarab ketgan. Bunga o‘rmonlarning kesilib, yo‘qolishini, Orol fojiasi, qurolg‘oqchilik, qattiq sovuq bo‘lganidan ham tabiatga va insonlarga yetadigan zararlarning oshishi bunga aniq misoldir. Jumladan, Orolning quriganidan so‘ng uning ostiga cho‘kkan quruq tuzlar O‘zbekistonning ham ba’zi viloyatlariga kirib kelmoqda. Bunga Qoraqalpog‘iston



Respublikasining ba'zi tumanlariga yetib borgani uchun va bunday yetkazilayotgan ziyonlar tufayli hozirgi kunda o'sha yerlik mahalliy aholining ko'p qismida soch, tish, qoshlarning to'kilishi juda ko'p uchramoqda. Ko'plab tog'oldi va tog'li joylarda daraxt kesishi yoki qor ko'chishi haqida ham insonlar ekoyordamchilarga yoki shu yo'nalish bo'yicha ishlaydigan ekoxodimlarga e'lon berishadi.

Buning uchun kishiga ekologiya yordam uchun hech qanday qobiliyat kerakmas.

Istalgan kishi ekologiya uchun ko'maklasha oladi. Demak, ekójurnalistika bu borada nima uchun kerak, deyilganda jurnalistlarning vazifasi insonlarga bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ekologiyaning oqibatlarini yetkazishdir. Bugungi kunda yuqorida aytilganidek ekójurnalistika yo'nalishi borasida olib borilayotgan ishlar ko'p emas. Bu borada 1990-yillar boshlarida O'zbekistonda ham qiziqishlar boshlandi. "Ekologik mavzuda Internet nashrlarda e'lon qilinayotgan materiallar tili va uslubini yaxshilash, bir qolipdagi va stereotipga aylanib qolgan fikrlardan qochish, ortiqcha hayajondan, noto'g'ri fikrlardan qutulish, xato izohlardan, sharhlardan, statistika va raqamlardan to'g'ri foydalanish zarurati muhim masalalardan biri hisoblanadi" [3]. Bu o'rinda har bir jurnalist uchun yetkazilayotgan mahsulotning (ommaviy axborot vositalari orqali yetkazmoqchi bo'lgan media ishlari) tinglovchiga yetkazish uchun kasbiy ko'nikmalar, ya'ni chiroyli tarzda bayon etish, xolislik va ob'yektivlik, qiziquvchanlik, qat'iyat va insoniylik prinsiplariga asoslanib to'g'ri tahlil qila olishi kerak. Bu o'rinda jurnalist atrof-muhitga to'g'ri ta'sir ko'rsatishni o'rganishi kerak. Bunda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar oldida "voqea va hodisalarni tahlil qilish, dolzarb ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish va ularning yechimlarini taklif etish borasida keng imkoniyatlar" ochildi [4]. Aytishimiz mumkinki, ekójurnalistika jurnalistikaning bir yo'nalishi bo'lgan holda o'ziga



xos bir qancha jihatlarga tayanadi. “Ushbu yechim bir nechta jihatlarga tayanadi: ekologiya sohasiga oid axborotlarni olish, soha ekspertlari va mutaxassislari bilan uchrashish, ekologik muammolar mavjud bo‘lgan hududlar, uchastkalar va ob‘yektlarni borib ko‘rish” [5]. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan “2019-yil 30-oktabrdan 2030yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon imzolandi [6]. Shu farmon doirasida olib borilayotgan ishlar juda ko‘p. Xususan, O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti Internet jurnalistikasi fakulteti o‘quv dasturlariga “ekojournalistika” fani kiritildi. Jumladan, shu o‘rinda O‘zbekiston jurnalistlari va blogerlari uchun ekojournalist bo‘lib ishlash borasida tushunchalar berib o‘tilmoqda.

Ekojournalistika bugungi globalashuv davrida ekologik ongni shakllantirish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, raqamli axborot muhitining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarda nazoratsiz ma‘lumot almashinuvi jarayonlari ekologik mavzularda feyk xabarlarining tezkor tarqalishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolar siyosiy, iqtisodiy yoki korporativ manfaatlar bilan kesishgan hollarda, soxta yoki manipulyativ kontentlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik xabarlar sohasida feyk axborotlar uchta asosiy yo‘nalishda ko‘paymoqda:1.“Yashil PR” (greenwashing) — korxonalar tomonidan atrofmuhitga zararli faoliyatni yashirish yoki ularni “ekologik jihatdan toza” deb ko‘rsatish maqsadida yaratilgan axborotlar;2. Dezinformatsion postlar va vizual feyklar — sun‘iy intellekt yoki tahrir dasturlari yordamida ishlab chiqilgan, ammo real holatni aks ettirmaydigan tasvirlar va videolar;3. Ekofobiyani kuchaytiruvchi asossiz prognozlar — iqlim o‘zgarishi yoki tabiiy ofatlar haqida ilmiy asosdan yiroq vahimali xabarlar.Bunday holatlar natijasida jamoatchilik



orasida ekologik muammolarga nisbatan ishonchsizlik, befarqlik yoki noto'g'ri qarashlar shakllanmoqda. Shu sababli, ekójurnalistikaning asosiy vazifasi nafaqat axborotni yetkazish, balki uni ilmiy verifikatsiya, faktologik tekshiruv va kontentni etik me'yorlarda tahlil qilish orqali jamoatchilik ongini to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki, ekójurnalistlar uchun media savodxonlik treninglari o'tkazish, Fact-checking laboratoriyalarini ekologik mavzularda ixtisoslashtirish, ekologik axborotlar uchun ruxsatnoma va ekspertizani kuchaytirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N. Qosimova. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lidagi ta'lim sohasida hamkor sifatida (o'quv qo'llanma).

2. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5331133>

3. N. Qosimova. "O'zbekistonda ekologiya yo'nalishidagi online jurnalistikaning rivojlanishi muammo va yechimlar".

4. Коханова Л.А. Экологическая журналистика, PR и реклама: учеб.пособие для студентов вузов / Под ред. Я.Н. Засурского. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – С. 121.

5. Джангиров М. Развитие экологической журналистики в Узбекистане способствует распространению знаний. <http://www.cac-program.org> (<http://www.cac-program.org/>)

6. N. Qosimova. "Aholini ekologik xavflardan OAV orqali ogoh etish – muhim va dolzarb vazifa".

7. O'zbekiston ekologik harakatining 2014-yil va 2015-yil birinchi yarim yillik yakunlariga bag'ishlangan hisoboti. 2015-09-11.

8. IFCN (International Fact-Checking Network) report, 2023.